

# **Termizga aviaqatnovlarning tiklanishi**

**2022 26 December**

«Termiz» xalqaro aeroporti ochilishi munosabati bilan, «Uzbekistan Airways» AJ 26-dekabrda boshlab quyidagi qatnovlarni tikladi – Toshkent-Termiz-Toshkent, Termiz-Moskva-Termiz, Termiz-Sankt-Peterburg-Termiz.

Bugungi kunda ichki turizmni rivojlantirish maqsadida Uzbekistan Airways Toshkent-Termiz-Toshkent yoʻnalishida haftasiga 8 marta, Termiz-Sankt-Peterburg-Termiz va Termiz-Moskva-Termiz qatnovlarida esa haftasiga bir martadan amalga oshiradi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy saytidan, Uzbekistan Airways Sales filialidan yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qilib olish mumkin.